



TOSHKENT
RESPUBLIKA FOND BIRJASI

PRESS- RELIZ

**I YARIM YILLIK
2026**

+998 555 100 300
WWW.UZSE.UZ

**100170, O'ZBEKISTON, TOSHKENT,
MUSTAQILLIK 107**

MUNDARIJA

SAVDO YAKUNLARI	3
BIRJA SAVDOLARI	4
Birja savdolari sharhi	5
Birja bozorlari va maydonchalari sharhi	6
Birja kotirovkalash varag'ining tuzilmasi	7
Tarmoqlar tarkibi	9
AKSIYALAR BOZORIDAGI SAVDO YAKUNLARI	12
Aksiyalar bozoridagi savdolarning sharhi	13
Main Board bo'yicha Top-10 aksiyalar	14
Bozor narxlaridagi o'zgarish	15
Birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan emitentlarning umumiy bozor kapitallashuvi	16
UCI indeksi	17
OBLIGATSIYALAR BOZORIDAGI SAVDO YAKUNLARI	19
Obligatsiya bozori savdosi sharhi	20
LISTINGDAN TASHQARI SAVDO MAYDONCHASI	22
LISTINGDAN TASHQARI SAVDO MAYDONCHASIDAGI SAVDOLAR YAKUNI	23
LTSM savdolari sharhi	24
LTSMda "Main Board" bo'yicha Top-10 aksiyalar	26
Narxlar o'zgarishi	27
DISKLEYMER	29



TOSHKENT

RESPUBLIKA FOND BIRJASI

SAVDO YAKUNLARI

490 365

Bitimlar soni

6 937,69 mlrd so'm

Savdolar hajmi

288,96 mlrd

***Savdoda ishtirok etgan
qimmatli qog'ozlar***

120 kun

Savdo kunlari

335

***Savdo qilingan
instrumentlar soni***

280

***Savdoda ishtirok etgan
emitentlar soni***

**! YARIM YILLIK
2026**



TOSHKENT
RESPUBLIKA FOND BIRJASI

BIRJA SAVDOLARI


BIRJA SAVDOLARI SHARHI

2026-yilning 1-yarim yilligi yakunlariga ko'ra, "Toshkent" Respublika fond birjasida umumiy qiymati 4,33 trln so'm (357,69 mln AQSH dollari) bo'lgan 419 971 ta bitim tuzildi.





Mazkur savdolarida 87 ta emitentning 197,56 mlrd dona qimmatli qog'ozi bilan savdolar amalga oshirildi. 2026-yilning 1-yarim yilligi ko'rsatkichlari 2025-yilning mos davri bilan taqqoslanganda, bitimlar soni 130,87 foizga oshgani, savdolar hajmi esa 25,33 foizga kamaygani kuzatildi.

Savdo hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich fevral oyida qayd etilib, umumiy savdo hajmi 1,45 trln so'mni tashkil etdi. Mazkur oyda savdo hajmining asosiy qismi "Main Board" asosiy savdo maydonchasining "Bond Market" obligatsiyalar bozoriga to'g'ri kelib, 1,42 trln so'mni yoki umumiy savdo hajmining 97,98 foizini tashkil qildi.


2026-YILNING 1 YARIM YILLIGI BITIMLAR SONI VA HAJMI (MLRD SO'M)




Eng yuqori kunlik savdo hajmi 3-fevral kuni qayd etilib, 1,01 trln so'mga yetdi. Eng past kunlik savdo hajmi esa 8-may kuni kuzatilib, 428,70 mln so'mni tashkil etdi.



SAVDOLAR SONI



SAVDOLAR HAJMI, MLRD SO'M



BIRJA BOZORLARI VA MAYDONCHALARI SHARHI

“Stock Market” aksiyalar bozorida 2026-yilning 1-yarim yilligi yakunlariga ko'ra, 72 ta emitent aksiyalari bo'yicha umumiy qiymati 937,70 mlrd so'mlik 403 975 ta bitim tuzildi. Jumladan, “Main Board” seksiyasida 158,89 mlrd so'mlik 403 912 ta bitim, “Nego Board” seksiyasida 648,32 mlrd so'mlik 59 ta bitim (aksiyalar bozori umumiy savdo hajmining 69,14 foizi) hamda “FoP Board” maydonchasida 130,49 mlrd so'mlik 4 ta bitim tuzildi.

“Bond Market” obligatsiyalar bozorida 2026-yilning 1-yarim yilligi yakunlariga ko'ra, umumiy qiymati 3,29 trln so'm (270,70 mln AQSH dollari) bo'lgan 11 061 ta bitim tuzildi. Bu umumiy birja savdolari hajmining 75,88 foizini tashkil etdi.

Jumladan, G1-“Main Board” asosiy savdo maydonchasida 2,80 trln so'mlik 11 036 ta bitim (obligatsiyalar bozori umumiy hajmining 85,32 foizi), T1-“Nego Board” savdo maydonchasida esa 482,48 mlrd so'mlik 25 ta bitim tuzildi.

REPO bozorining "Repo Nego Board" savdo maydonchasida umumiy qiymati 204,60 mln so'mlik 10 ta bitim tuzildi. YaDTK broker tizimida IPO va Public Offering (PO) doirasida umumiy qiymati 106,31 mlrd so'mlik 4 925 ta bitim tuzildi. Jumladan, IPO doirasida 106,01 mlrd so'mlik 4 922 ta bitim, Public Offering (PO) doirasida esa 300,15 mln so'mlik 3 ta bitim amalga oshirildi.

Nº	Savdo tizimi bo'limlari	Emitentlar soni	Bitimlar soni	Qimmatli qig'ozlar soni	Bitimlar hajmi (so'm)
I.	«Stock Market»:	72	403 975	173 510 640 122	937 698 673 638,03
1.	«Main Board»	64	403 912	33 048 628 127	158 890 920 538,07
2.	«Nego Board»	17	59	140 331 524 821	648 320 579 099,96
3.	«FoP Board»	1	4	130 487 174	130 487 174 000,00
II.	«Bond Market»	15	11 061	3 409 093	3 285 643 275 943,13
1.	«Main Board»	15	11 036	2 225 914	2 803 159 539 112,44
2.	«Nego Board»	3	25	1 183 179	482 483 736 830,69
III.	«Repo Market»	2	10	240	204 596 418,22
1.	«Repo Nego Board»	2	10	240	204 596 418,22
IV.	YaDTK broker tizimida	2	4 925	24 043 845 419	106 311 812 197,79
1.	«IPO»	1	4 922	24 038 925 419	106 011 661 097,79
2.	«Public offering»	1	3	4 920 000	300 151 100,00
Jami		87	419 971	197 557 894 874	4 329 858 358 197,18

BIRJA KOTIROVKALASH VARAG'INING TUZILMASI

2026-yilning 1-yarim yilligi yakunlariga ko'ra, "Toshkent" Respublika fond birjasining birja kotirovkalash varag'ida 95 ta emitentning 154 ta moliyaviy instrumenti, jumladan 82 ta oddiy aksiya, 37 ta imtiyozli aksiya va 35 ta obligatsiya mavjud edi.


Hisobot davrida birja kotirovkalash varag'iga 16 ta emitentning 18 ta qimmatli qog'ozi, jumladan 12 ta obligatsiya, 5 ta oddiy va 1 ta imtiyozli aksiya kiritildi. Shuningdek, birja kotirovkalash varag'idan 11 ta emitentning 13 ta qimmatli qog'ozi, jumladan 3 ta obligatsiya, 8 ta oddiy va 2 ta imtiyozli aksiya chiqarildi. Jumladan, 2 ta oddiy aksiya monitoring natijalariga ko'ra, 3 ta obligatsiya so'ndirilgani munosabati bilan, 1 ta oddiy va 1 ta imtiyozli aksiya ixtiyoriy delisting asosida, 5 ta oddiy va 1 ta imtiyozli aksiya esa birja kotirovkalash varag'i to'g'risidagi nizom talablariga muvofiq kelmagani bois ro'yxatdan chiqarildi.

Birja kotirovkalash varag'ida aksiyalar emitentlari to'rt toifaga bo'linadi:


- "Premium" toifasi — 2 ta emitentning aksiyalari: "O'zbekiston Respublika tovar-xomashyo birjasi" AJ (URTS) va "O'zbekiston Respublikasi Milliy investitsiya fondi" AJ (UZNF);
- "Standart" toifasi — 58 ta instrument;
- "Xususiylashtirish" toifasi — 26 ta instrument;
- "Tranzit" toifasi — 33 ta instrument.

LISTING TOIFALARI BO'YICHA SAVDO NATIJALARI

BITIMLAR SONI



BITIMLAR HAJMI, MLRD SO'M



■ Premium

■ Standart

■ Xususiylashtirish

■ Tranzit


“Stock Market” aksiyalar bozorida bitimlar soni va savdo hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich “Standart” toifasiga to'g'ri kelib, unda 323 071 ta bitim tuzildi, bu umumiy bitimlar sonining 79,01 foizini tashkil etdi. Mazkur toifada savdolar hajmi 432,07 mlrd so'mni yoki umumiy savdo hajmining 41,39 foizini tashkil etdi.

“Premium” toifasida 52 554 ta bitim tuzilib, savdolar hajmi 287,86 mlrd so'mni (umumiy savdo hajmining 27,57 foizi) tashkil etdi. “Xususiylashtirish” toifasida 22823 ta bitim bo'yicha 209,27 mlrd so'mlik savdolar amalga oshirildi. Eng past ko'rsatkich “Tranzit” toifasida qayd etilib, 10 452 ta bitimning umumiy hajmi 114,81 mlrd so'mni tashkil etdi.

TARMOQLAR TARKIBI


Hisobot davrida birja savdolari iqtisodiyotning 14 ta tarmog'iga mansub emitentlarning qimmatli qog'ozlari bo'yicha amalga oshirildi.

TARMOQLAR KESIMIDA TUZILGAN BITIMLAR SONI



Bitimlar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich bank tarmog'i emitentlarining qimmatli qog'ozlariga to'g'ri kelib, 177 921 ta bitim tuzildi. Bu jami birja bitimlari sonining 42,37 foizini tashkil etdi. Keyingi o'rinlarni sug'urta (60 805 ta bitim, 14,48 foiz) hamda sanoat (41 783 ta bitim, 9,95 foiz) tarmoqlari egalladi.

TARMOQLAR KESIMIDA BITIMLAR HAJMI



Savdolar hajmi bo'yicha moliyaviy xizmatlar sohasi emitentlarining qimmatli qog'ozlari yetakchilik qilib, 2,11 trln so'mni yoki umumiy savdo hajmining 48,68 foizini tashkil etdi.

Ikkinchi o'rinni bank sektori egallab, ushbu ko'rsatkich 1,38 trln so'mni yoki umumiy savdo hajmining 31,88 foizini tashkil etdi.

Eng past savdo hajmi agrosanoat va lizing sohalariga mansub emitentlarning qimmatli qog'ozlari bo'yicha qayd etilib, mos ravishda 167,46 mln so'm va 8,85 mln so'mni tashkil etdi.

Tarmoqlar	Savdolar soni	Qimmatli qog'ozlar soni	Savdo hajmi (so'm)
Moliyaviy xizmatlar	40 088	55 180 202 159	2 107 621 040 797,83
Banklar	177 921	8 042 176	1 380 160 521 561,46
Boshqalar	23 567	20 907 019	542 848 878 364,66
Sug'urta	60 805	133 541 716 677	148 759 112 153,27
Transport	8 861	3 626 749	54 721 562 959,61
Sanoat	41 783	4 131 051	36 532 389 636,85
Mashinasozlik	2 184	5 338 463	23 602 936 249,40
Aloqa	17 238	3 033 012	18 674 527 014,83
Qurilish	913	3 213 624	12 180 185 041,11
Ko'chmas mulk	25 736	752 701 669	2 393 363 681,68
Energetika	16 538	739 567	1 897 801 273,90
Farmatsevtika	2 236	50 087	289 733 308,38
Agrosanoat	1 726	54 970	167 458 801,02
Lizing	375	3 499	8 847 352,44
Jami	419 971	197 557 894 874	4 329 858 358 196,44



TOSHKENT

RESPUBLIKA FOND BIRJASI

AKSIYALAR BOZORIDAGI SAVDO YAKUNLARI

403 975

Bitimlar soni

937,70 mlrd so'm

Savdolar hajmi

173,51 mlrd

*Savdoda ishtirok etgan
qimmatli qog'ozlar*

120 kun

Savdo kunlari

95

*Savdo qilingan
instrumentlar soni*

72

*Savdoda ishtirok etgan
emitentlar soni*

AKSIYALAR BOZORIDAGI SAVDOLARNING SHARHI


Aksiyalar bozorida savdo faolligi yarim yil davomida sezilarli darajada oshdi. Xususan, 1-chorakda 264,38 mlrd so'mlik 169 269 ta bitim tuzilgan bo'lsa, 2-chorakda bu ko'rsatkich 673,32 mlrd so'mlik 234 706 ta bitimni tashkil etdi.

Natijada, 2-chorakda 1-chorakka nisbatan bitimlar soni 38,66 foizga, savdolar hajmi esa 154,68 foizga oshdi. Savdolarda ishtirok etgan qimmatli qog'ozlar soni 15,88 mlrd donadan 157,63 mlrd donaga yetib, 892,72 foizga ko'paydi. Mazkur o'sish muomaladagi aksiyalari soni yuqori bo'lgan emitentlarning qimmatli qog'ozlari bo'yicha savdo faolligining ortishi bilan bog'liq.


2026-yilning 1-yarim yilligida aksiyalar bozorida o'rtacha kunlik bitimlar soni 3 367 tani, o'rtacha kunlik savdo hajmi 7,81 mlrd so'mni, savdolarda ishtirok etgan qimmatli qog'ozlarning o'rtacha kunlik soni esa 1 445,92 mln donani tashkil etdi.

2026-yilning 1-yarim yilligi yakunlariga ko'ra, "Stock Market" aksiyalar bozorida birja savdolarining umumiy hajmi 937,70 mlrd so'mni (77,59 mln AQSH dollari) tashkil etib, umumiy birja savdolari hajmining 21,66 foizini tashkil etdi.


BITIMLAR SONI



Q.Q. SONI, MLN DONA




SAVDO HAJMI, MLRD SO'M



MAIN BOARD BO'YICHA TOP-10 AKSIYALAR


G1 - "Main Board" asosiy savdo seksiyasida "Stock Market" aksiyalar bozorida bitimlar soni va hajmi bo'yicha Top-10 aksiyalar.

BITIMLAR SONI BO'YICHA TOP 10



Eng ko'p bitimlar "Aloqabank" AT /ALKB/ aksiyalari bo'yicha qayd etilib, 34 910 tani tashkil etdi. Keyingi o'rinlarda "Kapital sug'urta" AJ /KASU/ (32 036 ta bitim) va "Hamkorbank" ATB /HMKB/ (26 642 ta bitim) joylashdi. Bitimlar soni bo'yicha Top-10 ro'yxatini "O'zbekinvest" AJ /UZINP/ imtiyozli aksiyalari (13 136 ta bitim) va "Kapital sug'urta" AJ /KASUP/ (12 837 ta bitim) yakunladi.

SAVDO HAJMI BO'YICHA TOP-10, MLRD SO'M



Main Board” maydonchasida eng katta bitimlar hajmi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy investitsiya fondi” AJ /UZNF/ oddiy aksiyalari bo‘yicha qayd etilib, 40,85 mlrd so‘mni tashkil etdi. Keyingi o‘rinlarda “O‘zRTXB” AJ /URTS/ (32,40 mlrd so‘m) va “Hamkorbank” ATB /HMKB/ (21,59 mlrd so‘m) joylashdi

Savdolar hajmi bo‘yicha Top-10 ro‘yxatini “O‘zbekinvest” AJ /UZINP/ imtiyozli aksiyalari (1,97 mlrd so‘m) va “Qizilqumsement” AJ /QZSM/ oddiy aksiyalari (1,57 mlrd so‘m) yakunladi.

Top-10 aksiyalari bo‘yicha umumiy savdo hajmi 143,74 mlrd so‘mni yoki “Stock Market” aksiyalar bozorining G1 - “Main Board” asosiy maydonchasidagi bitimlar umumiy hajmining 90,46 foizini tashkil etdi.


BOZOR NARXLARIDAGI O‘ZGARISH

2025-yil yakunidagi aksiyalar yopilish narxlari 2026-yilning 1-yarim yilligi yakunidagi ko‘rsatkichlar bilan taqqoslanganda, eng likvid qimmatli qog‘ozlarning Top-10 taligiga kiruvchi barcha emitentlar aksiyalarida ijobiy narx dinamikasi kuzatildi. Bu fond bozorida ijobiy tendensiyalar shakllanayotganidan dalolat beradi.

Eng yuqori o‘shish aksiyalar narxi 100 foizdan ortiq oshgan emitentlar guruhida kuzatildi. Xususan, “O‘zsanoatqurilishbank” ATB /SQBN/ aksiyalari ▲ 204,01 foizga, “Ipoteka-bank” ATIB /IPTB/ aksiyalari ▲ 146,03 foizga, “Kvarts” AJ /KVTS/ aksiyalari esa ▲ 137,37 foizga o‘tdi. Shuningdek, ushbu guruhga “Olmaliq KMK” AJ /AGMKP/ (▲91,76%) va “O‘zmetkombinat” AJ /UZMK/ (▲86,60%) aksiyalari ham o‘rin oldi.

Qolgan emitentlarning aksiyalari ham barqaror o‘shish dinamikasini namoyon etdi. Ularning narxi ▲16,92 foizdan ▲52,33 foizgacha oshdi. Jumladan, “Hamkorbank” ATB /HMKB/ aksiyalari 52,33 foizga, “Qizilqumsement” AJ /QZSM/ aksiyalari esa ▲ 51,97 foizga qimmatlashdi. “O‘zRTXB” AJ /URTS/, “O‘zbekinvest” AJ /UZINP/ va “Chilonzor buyum savdo kompleksi” AJ /CBSK/ aksiyalari narxi esa ▲ 17–33 foiz oraliqida o‘tdi.


ENG YUQORI LIKVIDLI 10 TA QIMMATLI QOG'OZNING BOZOR NARXLARIDAGI O'ZGARISHI

Tikker	Emitent nomi	Yopilish narxi 30.12.2025	Yopilish narxi 31.06.2026	Narxlar o'zgarishi	Yopilish narxi dinamikasi
SQBN	ATB "O'zsanoatqurilishbank"	10,97	33,35	204,01%	
IPTB	ATIB "Ipoteka-bank"	1,26	3,1	146,03%	
KVTS	AJ "Kvarts"	990	2 350,00	137,37%	
ACMKP	AJ "Olmaliq KMK"	8 500,00	16 300,00	91,76%	
UZMK	AJ "O'zmetkombinat"	2 999,99	5 598,00	86,60%	
HMKB	AJ "Hamkorbank"	43	65,5	52,33%	
QZSM	ATB "Qizilqumsement"	760	1 155,00	51,97%	
URTS	AJ "O'zRTXB"	6 249,99	8 301,00	32,82%	
UZINP	AJ "O'zbekinvest"	1 499,00	1 990,00	32,76%	
CBSK	AJ "Chilonzor buyum savdo kompleksi"	2,60	3,04	16,92%	

BIRJA KOTIROVKALASH VARAG'IGA KIRITILGAN EMITENTLARNING UMUMIY BOZOR KAPITALLASHUVI

2026-yil 30-iyun holatiga ko'ra, "Toshkent" Respublika fond birjasining birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan emitentlarning umumiy bozor kapitallashuvi 428,06 trln so'mni (35,49 mlrd AQSH dollari) tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2025-yil 30-dekabr holatiga nisbatan **▲50,39** foizga oshdi.

BIRJA KOTIROVKALASH VARAG'IGA KIRITILGAN EMITENTLARNING UMUMIY BOZOR KAPITALLASHUVI



Erkin muomaladagi aksiyalarning (free-float) bozor kapitallashuvi esa 7,38 trln so'mni (612,22 mln AQSH dollari) tashkil etdi.

Shu bilan birga, listingdagi aksiyalar emitentlari soni 85 tadan 82 taga kamaydi.

Hisobot davrida bozor kapitallashuvining eng past darajasi 7-yanvar kuni qayd etilib, 275,08 trln so'mni tashkil etdi. Keyingi davrda mazkur ko'rsatkich barqaror o'sish dinamikasini namoyon etib, hisobot davrining oxirgi savdo kuni — 30-iyun holatiga ko'ra 428,06 trln so'm bilan eng yuqori darajaga yetdi.

UCI INDEKSI

O'zbekiston kompozit indeksi (keyingi o'rinlarda — UCI) "Toshkent" Respublika fond birjasi holatini aks ettiruvchi umumlashtirilgan ko'rsatkich bo'lib, birjaning kotirovkalash varag'iga kiritilgan barcha aksiyalar emitentlarining umumiy bozor holatini ifodalaydi.

UCI indeksini hisoblash metodikasi quyidagicha:


- **surat** — kotirovkalash varag'iga kiritilgan barcha aksiyalarning joriy sanadagi bozor kapitallashuvini ifodalaydi;
- **maxraj** — indeks yaratilgan sanadagi barcha aksiyalarning umumiy bozor kapitallashuvini ifodalaydi.

UCI indeksi quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$Index_{UCI} = \frac{\text{Market Cap current date}}{\text{Market Cap base date}} * \text{Base index}$$

2026-yilning 1-yarim yilligida UCI indeksi 744,02 punktdan (2025-yil 30-dekabr holatiga) 1 088,07 punktga (2026-yil 30-iyun holatiga) oshib, ▲ 46,24 foizlik o'sishni qayd etdi.

UCI INDEKSINING O'ZGARISH GRAFIGI



Indeksning eng past qiymati — 722,14 punkt — 7-yanvar kuni qayd etildi va bu bozor kapitallashuvining eng past darajasi kuzatilgan sana bilan mos keldi. Bozor kapitallashuvi dinamikasi singari, UCI indeksining eng yuqori qiymati ham hisobot davrining oxirgi savdo kuni — 30-iyun holatiga to'g'ri kelib, 1 088,07 punktni tashkil etdi.



TOSHKENT

RESPUBLIKA FOND BIRJASI

OBLIGATSIYALAR BOZORIDAGI SAVDO YAKUNLARI

11 061

Bitimlar soni

3 285,64 mlrd so'm

Savdolar hajmi

3 409 093

*Savdoda ishtirok etgan
qimmatli qog'ozlar*

120 kun

Savdo kunlari

27

*Savdo qilingan
instrumentlar soni*

13

*Savdoda ishtirok etgan
emitentlar soni*

OBLIGATSIYA BOZORI SAVDOSI SHARHI

2026-yilning 1-yarim yilligida “Bond Market” obligatsiyalar bozorida 13 ta emitentning obligatsiyalari bo'yicha umumiy qiymati 3,29 trln so'm (270,70 mln AQSH dollari) bo'lgan 11 061 ta bitim tuzildi.

Mazkur ko'rsatkich birjaning umumiy savdo hajmining 75,88 foizini tashkil etdi.

SAVDOLAR SONI

Yanvar	1 810
Fevral	2 022
Mart	2 092
Aprel	1 917
May	1 422
Iyun	1 800

SAVDOLAR HAJMI, MLRD SO'M

Yanvar	43,58
Fevral	1 423,21
Mart	332,41
Aprel	124,20
May	670,96
Iyun	691,29

Bitimlar soni bo'yicha eng faol oy mart bo'lib, unda 2 092 ta bitim tuzildi. Savdo hajmi bo'yicha esa eng yuqori ko'rsatkich fevral oyida qayd etildi. Mazkur oyda 2 020 ta bitim tuzilgan bo'lsa-da, umumiy savdo hajmi 1,42 trln so'mni tashkil etdi. Yuqori savdo hajmlari may va iyun oylarida ham kuzatilib, mos ravishda 670,96 mlrd so'm va 691,29 mlrd so'mni tashkil etdi. Eng past savdo hajmi yanvar oyida — 43,58 mlrd so'm, eng kam bitimlar soni esa may oyida — 1 422 tani tashkil etdi.

Emitentlar bo'yicha eng yuqori savdo hajmi “Asakabank” AJning /ASAK4B5/ obligatsiyalarida qayd etilib, 1,00 trln so'mni (1 ta bitim) tashkil etdi. Keyingi o'rinlarda “Mortgage Refinancing Company of Uzbekistan” AJning /IQMK5B8/ va /IQMK7B9/ obligatsiyalari — 796,92 mlrd so'm (11 ta bitim) hamda “UZUM SARMOYA” MChJ XKning /UZUMS3B/ obligatsiyalari — 775,61 mlrd so'm (10 ta bitim) bilan qayd etildi.

Bitimlar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich esa “AGAT CREDIT” MFO AJ obligatsiyalarida kuzatilib, ular bo'yicha umumiy qiymati 166,61 mlrd so'mlik 6 947 ta bitim tuzildi.

EMITENTLAR BO'YICHA OBLIGATSIYALAR BILAN TUZILGAN BITIMLAR HAJMI VA SONI

Emitent	Bitimlar soni	Q.Q. soni	Savdolar hajmi, so'm
AGAT CREDIT	6 947	1 642 461	166 608 883 494
ANOR BANK	9	605 000	61 374 692 802
ASIA ALLIANCE BANK	1	40	40 000 000
BIZNES FINANS MIKROMOLIYA	1 956	144 945	14 730 088 925
CONTACT FINANCE	1 679	117 620	11 953 198 585
HAMROH MIKROMOLIYA TASHKILOTI	4	11 000	11 000 000 000
IMKON FINANS MIKROMOLIYA TASHKILOTI	289	4 269	4 281 089 279
MAKESENSE	37	1 707	433 645 320 551
Mikrofinance organization Delta	116	8 988	9 481 649 384
Mortgage Refinancing Company of Uzbekistan	11	795 000	796 916 831 000
UZUM SARMOYA	10	76 061	775 609 521 923
KAPITALBANK	1	2	2 000 000
Asakabank	1	2000	1 000 000 000 000
Jami	11 061	3 409 093	3 285 643 275 943

LISTINGDAN TASHQARI SAVDO MAYDONCHASI



TOSHKENT
RESPUBLIKA FOND BIRJASI

**I YARIM YILLIK
2026**

LISTINGDAN TASHQARI SAVDO MAYDONCHASIDAGI SAVDOLAR YAKUNI

70 394
Bitimlar soni

2 607,83 mlrd so'm
Savdolar hajmi

91,41 mlrd
*Savdoda ishtirok etgan
qimmatli qog'ozlar*

120 kun
Savdo kunlari

215
*Savdo qilingan
instrumentlar soni*

201
*Savdoda ishtirok etgan
emitentlar soni*

LTSM SAVDOLARI SHARHI

2026-yilning 1-yarim yilligida “Toshkent” Respublika fond birjasining listingdan tashqari savdo maydonchasida umumiy qiymati 2 607,83 mlrd soʻmni (216,31 mln AQSH dollari) tashkil etgan 70 394 ta bitim tuzildi. Bitimlar 201 ta emitentning 91,41 mlrd dona qimmatli qogʻozi, jami 215 ta instrument boʻyicha amalga oshirildi.


Savdo kunlari kesimida bitimlar soni boʻyicha eng yuqori koʻrsatkich 20-aprel kuni qayd etilib, 1 137 tani tashkil etdi. Eng past koʻrsatkich esa 3-fevral kuni kuzatilib, 68 ta bitimni tashkil etdi.

Savdo hajmi boʻyicha eng yuqori koʻrsatkich 30-aprel kuni qayd etilib, ushbu kunda umumiy savdo hajmi 1,17 trln soʻmdan oshdi. Eng past savdo hajmi esa 3-fevral kuni kuzatilib, 1,09 mln soʻmni tashkil etdi. Oʻrtacha kunlik bitimlar soni 587 tani, oʻrtacha kunlik savdo hajmi esa 21,73 mlrd soʻmni tashkil etdi.


“SME Stock” aksiyalar bozorining listingdan tashqari savdo maydonchasidagi “Main Board” sektorida oʻrtacha kunlik savdo hajmi 326,67 mln soʻmni tashkil etdi. Shuningdek, “SME Stock” aksiyalar bozorining “Nego Board” maydonchasida 174 ta bitim tuzilib, ularning umumiy hajmi 421,95 mlrd soʻmni tashkil etdi. Bu listingdan tashqari savdo maydonidagi (LTSM) umumiy savdo hajmining 16,18 foiziga teng boʻldi.

SAVDO HAJMI, MLRD SOʻM

Milliard



SAVDOLAR SONI



“FoP Board” maydonchasida esa 18 ta bitim tuzilib, ularning umumiy hajmi 2,15 trln soʻmni tashkil etdi. Mazkur koʻrsatkich LTSMdagi umumiy savdo hajmining 82,31 foiziga teng boʻldi.


“SME Bond” obligatsiyalar bozorining listingdan tashqari savdo maydonchasidagi “Main Board” sektorida 7 ta bitim tuzilib, ularning umumiy qiymati 250,00 mln soʻmni tashkil etdi.

Nº	Listingdan tashqari savdo maydonchasi	Emitentlar soni	Bitimlar soni	Qimmatli qogʻzlar soni	Bitimlar hajmi (soʻm)
I.	«SME Stock»:	200	70 387	91 406 517 792	2 607 581 121 788,37
1.	«Main Board»	182	70 195	1 241 782 403	39 200 828 682,29
2.	«Nego Board»	20	174	75 773 963 989	421 947 113 120,88
3.	«FoP Board»	6	18	14 390 771 400	2 146 433 179 985,20
II.	«SME Bond»	1	7	250	250 000 000,00
1.	«Main Board»	1	7	250	250 000 000,00
Jami		201	70 394	63 267 750 481	587 442 217 585,34

LTSM DA "MAIN BOARD" BO'YICHA TOP-10 AKSIYALAR

"SME Stock" aksiyalar bozorida "Main Board" seksiyasida tuzilgan bitimlar soni va hajmi bo'yicha Top-10 aksiyalar

BITIMLAR SONI BO'YICHA TOP-10 QIMMATLI QOG'OZLAR




Eng ko'p bitimlar "Uzsanoateksport" AJ /OSNE/ aksiyalari bo'yicha qayd etilib, 9 297 tani tashkil etdi. Keyingi o'rinlarni "UZPARTA'MINOT" AJ /UZPT/ va "QO'QON MEXANIKA ZAVODI" AJ /OKUM/ egallab, ular bo'yicha mos ravishda 3 830 va 3 654 ta bitim tuzildi. Top-10 ro'yxatini "Kogon yog'-ekstraksiya zavodi" AJ /OKYZ/ va "Foykon" AJ /OFKN/ aksiyalari yakunlab, ular bo'yicha mos ravishda 1 817 va 1 760 ta bitim amalga oshirildi.

Bitimlarning eng katta hajmi "DIGITAL BUSINESS AGREGATOR" AJ /ORBA/ oddiy aksiyalari bo'yicha qayd etilib, 20,35 mlrd so'mni tashkil etdi. Keyingi o'rinlarda "BEST PIPE AND PARTS" AJ /OUSW/ va "DUNYO-M" AJ /ODNM/ joylashib, ularning oddiy aksiyalari bo'yicha bitimlar hajmi mos ravishda 6,27 mlrd va 3,32 mlrd so'mni tashkil etdi. Top-10 ro'yxatini umumiy hajmi 242,12 mln so'm bo'lgan "SHOVOT DON MAHSULOTLARI" AJ /OSVD/ yakunladi.

Shu bilan birga, qimmatli qog'ozlari "Main Board" maydonchasida savdo qilingan Top-10 emitentlar bo'yicha umumiy hajm 35,01 mlrd so'mni yoki aksiyalar bozorining "Main Board" maydonchasidagi umumiy savdo hajmining 89,31 foizini tashkil etdi.

BITIMLAR HAJMI BO'YICHA TOP 10 TA QIMMATLI QOG'OZ, MLRD SO'M



NARXLAR O'ZGARISHI

ENG LIKVIDLI* QIMMATLI QOG'OZLAR NARXLARINING O'ZGARISHI**



* 30.12.2025 va 31.06.2026 kunlaridagi yopilish narxlari taqqoslanadi

** Eng likvidli qimmatli qog'ozlar sifatida bitimlar soni bo'yicha top 10 ta aksiya olingan

2025-yil 30-dekabr va 2026-yil 30-iyun holatidagi aksiyalar yopilish narxlari taqqoslanganda, eng likvidli qimmatli qog'ozlar orasida oltita emitentning aksiyalari ▲ 3,45 foizdan ▲ 59,41 foizgacha bo'lgan oraliqda o'sishni ko'rsatdi. Narxlarning eng sezilarli o'sishi /OHMS/ aksiyalari bo'yicha qayd etilib, 9,78 so'mdan 15,59 so'mgacha (▲ 59,41%), shuningdek /UZPT/ aksiyalari 309,99 so'mdan 419,80 so'mgacha (▲ 35,42%) o'sdi. /OKUM/ va /OHETP/ aksiyalari ham sezilarli o'sishni ko'rsatib, mos ravishda 394,00 so'mdan 510,00 so'mgacha (▲ 29,44%) va 2 834,00 so'mdan 3 260,00 so'mgacha (▲ 15,03%) ko'tarildi. /OKYZ/ aksiyalari bo'yicha ozgina o'sish kuzatilib, narx 268,98 so'mdan 293,02 so'mgacha (▲ 8,94%), shuningdek /OSNE/ aksiyalari 0,29 so'mdan 0,30 so'mgacha (▲ 3,45%) oshdi.

Shu bilan birga, to'rtta emitentning aksiyalari narxining pasayishi kuzatildi. Narxlarning eng katta pasayishi 1 599,00 so'mdan 700,00 so'mgacha (▼ 56,22%) pasaygan /OTKS/ aksiyalari bo'yicha kuzatildi. /OFKN/ va /OYGY/ aksiyalari ham sezilarli pasayishni ko'rsatib, mos ravishda 2 743,00 so'mdan 2 398,98 so'mgacha (▼ 12,54%) va 677,00 so'mdan 614,97 so'mgacha (▼ 9,16%) pasaydi. /OEIG/ aksiyalari bo'yicha esa ozgina pasayish qayd etildi — 1 005,00 so'mdan 930,00 so'mgacha (▼ 7,46%).

DISKLEYMER

Ushbu tahlilda keltirilgan ma'lumotlar "Toshkent" Respublika fond birjasi AJ (keyingi o'rinlarda "Toshkent" RFB) mutaxassislari tomonidan tayyorlangan. Ushbu tahliliy material faqat ma'lumot uchun mo'ljallangan bo'lib, "Toshkent" RFB va uning xodimlarining hech qaysi biri ushbu sharhdan yoki undagi ma'lumotlardan foydalanish natijasida kelib chiqqan bevosita yoki bilvosita yo'qotishlar (zararlar) uchun javobgar emas.

"Toshkent" RFB investorlarga muayyan investitsiyalar va strategiyalarni maqsadga muvofiqligini mustaqil baholashga chorlaydi va investorlarni litsenziyalangan investitsiya vositachilari xizmatlaridan foydalanishga undaydi.

Ushbu sharh bo'yicha barcha huquqlar "Toshkent" RFBga tegishli. Ushbu tahliliy materialni qisman yoki to'liq ko'paytirish va/yoki tarqatish faqat manbani ko'rsatgan holda amalga oshirilishi shart.

© **"TOSHKENT" RESPUBLIKA FOND BIRJASI AJ**

Birjaviy tahlil "Tahlil va statistika" bo'limi tomonidan tayyorlangan.

Fikr-mulohaza uchun kontaktlar:

E-mail: analytics@uzse.uz

Tel.: +998 555 100 300